


«Zamonaviy drama va kino san'ati: muammo va yechimlari» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi

Joriy yilning 29-fevral kuni dramatik teatr va kino san'ati kaferdasi tashabbusi bilan «Zamonaviy drama va kino san'ati: muammo va yechimlari» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Unda soha vakillari, taniqli professor-o'qituvchilar va olimlar, kafedra o'qituvchilari, tayanch doktorantlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Konferensiyani institut rektori v.b. Eldor Shermanov ochib berib, sohadagi muammolar va ularni bartaraf etishda institut zimmasida katta mas'uliyat borligi to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Bundan tashqari, konferensiyada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Munavvara Abdullayeva, professor Hamida Mahmudova, dotsent Shoiri Hamidova, san'atshunoslik fanlari nomzodi Oybek Kapadze kabi bir qancha soha mutaxassislarining ma'ruzalari tinglandi.







Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihonlari bo'lib o'tdi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi «Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida O'zbekiston davlat

san'at va madaniyat institutida 2024-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchi (DSc/PhD)ga hujjatlari qabul qilingan talabgorlar uchun suhbat jarayoni tashkil etildi.

O'zDSMI rektorining tegishli buyrug'iga muvofiq, joriy yilning 29-fevral sanasida mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga kiruvchilar uchun 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihonlari bo'lib o'tdi.

Qabul komissiyasi a'zolari doktorantura bosqichida mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqot olib borish istagini bildirgan talabgorlar bilan suhbat o'tkazdi.





Samarali xalqaro hamkorliklar – taraqqiyot omili


Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida xalqaro aloqalar samaradorligi va rektor huzuridagi o'tkazilgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar ijrosi muhokama qilindi.

Yig'ilish avvalida cholg'u ijrochiligi va musiqa nazariyasi kafedrasida dotsenti Sedix Tatyana Tomovnaga san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi diplom tantanali ravishda topshirilib, uning keyingi faoliyatiga ham omad tilandi.

Yig'ilishda institutning xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan imzolangan memorandumlar ijrosini ta'minlash hamda hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi. Bu borada yanvar oyida Xitoy xalq Respublikasining 5 ta oliy ta'lim muassasasi bilan erishilgan kelishuvlarni

amaliy jihatdan hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, yig'ilishda kontrakt va talabalar turar joyi to'lovlarining holati monitoring qilinib, zaruriy ko'rsatmalar berildi.






0‘zDSMIda kino san‘ati bo‘yicha mustaqil izlanuvchi bo‘lishga talabgorlar uchun suhbat tashkil etildi

0‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi «Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida 2024-yil 2-chorak uchun mustaqil izlanuvchi (DSc/PhD)ga hujjatlari qabul qilingan talabgorlar uchun suhbat jarayoni tashkil etildi.

0‘zDSMI rektorining tegishli buyrug‘iga muvofiq, joriy yilning 28-fevral kuni mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga kiruvchilar uchun 17.00.03 – Kino san‘ati. Televideniye ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanidan kirish imtihoni bo‘lib o‘tdi.

Qabul komissiyasi a‘zolari doktorantura bosqichida mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqot olib borish istagini bildirgan talabgorlar bilan suhbat o‘tkazdi.






0‘zDSMI «Talabalar teatr studiyalari» Respublika-ko‘rik tanlovining hududiy bosqichiga mezbonlik qilmoqda

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti «Talabalar teatr studiyalari» Respublika ko‘rik-tanlovining 2-hududiy bosqichiga mezbonlik qilmoqda.

Bugun institut o‘quv teatri binosida 0‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 0‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Alfraganus universiteti, Perfect universiteti oliygohlarining talabalari o‘z spektakllarini namoyish etishadi.







«Taqdir sinovlari» diplom spektakli namoyishi bo'lib o'tdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr sana'ti fakulteti dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabalarining «Taqdir sinovlari» deb nomlangan diplom spektakli bo'lib o'tdi.

Taniqli dramaturg Qo'chqor Norqobil asari asosida O'zbekiston xalq artisti, professor Erkin Komilov tomonidan sahnalashtirilgan spektakl tomoshasi unga yig'ilgan barchaga birdek manzur bo'ldi.

Tadbir so'ngida institut rektori v.b. Eldor Shermanov sahna asari yaratishida hissa qo'shgan barchaga minnatdorchilik bildirdi.

«Bugungi spektakl barchaga manzur keldi, deb o'ylayman. Kichik guruhning shunday katta asarga qo'l urgani tahsinga loyiq. Shu jumladan, sahnalashtiruvchi rejissyor, ustoz Erkin Komilovga alohida tashakkur izhor qilmoqchiman. Har bir davrning o'z qahramonlari bo'ladi. Erkin Komilov – biz uchun hamisha qahramon», – dedi rektor.

Shu bilan birga, spektaklda o'z roli, dialogi va ijro mahorati bilan ajralib turgan talabalar moddiy mukofot bilan taqdirlanadigan bo'ldi.





Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari O'zDSMIda malaka oshirgan madaniyat boshqarmalari rahbarlarini sertifikat bilan taqdirladi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov malaka oshirish tarmoq markazida tahsil olgan vazirlik tasarrufidagi madaniyat boshqarmalari rahbarlari bilan uchrashdi.

Uchrashuv davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, sohadagi yutuq va kamchiliklar to'g'risida fikr bildirilib, bu borada vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari hamda madaniyat boshqarmalarining o'rni e'tirof etildi.


«O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti avvalgiga qaraganda ancha yaxshi tarafga o'zgaragan. Xalqaro aloqalar nihoyatda jadallashgan. Buning uchun institut rahbariyatiga vazirlik nomidan minnatdorchilik bildiraman», – dedi Bahodir Ahmedov.

Shu bilan birga, institut rektori v.b. Eldor Shermanov vazirlik rahbariyati va markazda malaka oshirgan boshqarma boshliqlariga o'z tashakkurini bildirdi.

Tadbir davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti qoshida tashkil etilgan malaka oshirish tarmoq markazida tahsil olgan boshqarma boshliqlari sertifikat bilan taqdirlanib, ularga minnatdorchilik bildirildi.









0‘zDSMI professor- o‘qituvchilari Mudofaa vazirligi tomonidan maxsus ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi

Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasida dotsenti Jahongir Ahmedov, shuningdek, kino, televideniye va radio rejissyorligi kafedrasida dotsentlari – Jahongir Qosimov va Hilol Nasimov O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan «Yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti mukofot sohibi bilan professor-o‘qituvchilarni tabriklaydi.



